

## **FORMATION OF SPATIAL IMAGINATIONS IN STUDENTS**

Bozorov Asror Botirovich

Teacher

(e-mail: a.bozorov@tersu.uz)

(phone number: +99899 042 24 91)

### **Abstract**

This article talks about the formation of students' spatial imagination through visual arts.

**Keywords:** Spatial imagination, visual arts, students, drawing, formation.

### **TALABALARDA FAZOVIIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH.**

Bozorov Asror Botirovich

o'qituvchi (e-mail: a.bozorov@tersu.uz)

(telefon raqam: +99899 042 24 91)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tasviriy san'at fani orqali talabalarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirish haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Fazoviy tasavvur, tasviriy san'at, o'quvchilar, rasm chizish, shakllantirish


Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at o'quvchilarning qiziqish doiralari kengayishiga, ularning estetik ehtiyojlarini tarbiyalashga, tafakkurini, tassavurini, xotirasini, badiiy qobiliyatlarini, borliq va estetik munosabatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Tasviriy san'at darslarida shaxs uchun muxim bo'lgan qat'iylik, maqsadga intilish, ozodalik, mehnatsevarlik kabi sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida o'quvchilar bizni o'rab turgan borliq hodisalarini o'rganadilar, predmetlarni taxlil qiladilar va qator grafik va rangtasvir borasida ko'nikma va malakalarini egallaydilar. Shu bilan bir qatorda tasviriy san'at o'quvchilarda borliqni o'rganishning samarali vositasi bo'lishi bilan bir qatorda ularni ko'rish idroki, tasavvuri, tafakkuri, fazoviy tasavvuri, xotirasi, sezgisi va boshqa psixik jarayolarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san'at darslaridagi mashg'ulotlar o'quvchilarning tasviriy qobiliyatlarini bir qator komponentlarini rivojlantirish va mukamallashtirishga yordam beradi. Bularga biz naturani yaxlit aktiv ko'ruv idrok etish fazoviy, kompozitsion va obrazli tafakkur, xotira, tasavvur, ko'nikma va malakalarni aytishimiz mumkin, bu professional tayyorgarlikni yaxshilash imkonini beradi.

<https://ejedl.academiascience.org>

**Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning is a scholarly peer reviewed international Journal**




O'quvchilarda fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun biz oldin narsani o'ziga qarab rasm chizdirdik, so'ng tasavvur asosida faqat boshqa holatda chizdirdik. Qo'yilgan vazifa shundan iborat ediki o'quvchi natura shaklini boshqa ko'rish nuqtasidan tushunib chizgan. Natijada o'quvchiga tasavvur asosida rasm chizish yordam berdiki u narsani o'ziga qarab rasm chizganda tushirib qoldirgan yoki ahamiyat bermagan joylarini bilib oldilar. Fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun rasm chizishning turli xil usullarini yo'llash lozim. Tasviriy san'at dasturlarida ham rasimga o'rgatish jarayonida o'quvchilar naturadan, xotiradan va tasavvurdan rasm chizish malakalarini egallaydilar, texnik malakalari shakllanadi, shu bilan bir qatorda ularda fazoviy tafakkurlari ham rivojlanadi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish bilan bir qatorda rasm chizishning boshqa turlarini ham qo'llash lozim. Psixologlar fikricha xotira va tasavvurdan rasm chizish inson xotirasi va ongida fazoviy obrazlarni shakllantirishning aktiv vositasi bo'lib hisoblanadi. Rasm chizishning bu turlarini o'quvchilarda fazoviy tafakkurlarini shakllantirishda yordam beradi. Masalan: tasavvur asosida rasm chizish chizuvchiga predmetning tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotlarni beradi. Maslan: chizuvchi ko'zaning o'ziga qarab rasmni chizganda, uning dastagini asosga qanday birlashganligiga e'tiborni qaratmagan edi. Tasavvur asosida shu predmetni chizganda talaba mulohaza yuritadiki dasta qanday birlashtiriladi, xotirasidagi hayotiy tajribalarni esga oladi.

Fazoviy tasavvurni shakllantirish va ko'ruv idrokini tashkil etishga ko'rgazmali qurollarni tanlash katta o'rinni tutadi. Modellar, sxemalar, tablistalarni rasm chizish jarayonida qo'llash haqidagi Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, aka-uka Dyupii, A.P.Losenko, A.P.Sapojnikov, A.K.Savrasov, P.P.Chistyakov, D.N.Kardovskiy va boshqalar katta ahamiyat, D.N.Kardovskiy

fazoviy tasavvurni shakllanishida katta o'rinni o'qituvchi so'zi turishini ko'rsatib turgan edi. U bunday tajriba davomida to'plangan bilimlarini so'z ham o'rnini bosolmasligiga alohida xulosa chiqarish mumkinki, ish jarayonida orttirilgan bilimlar asosiy o'rinni tutadi. Pedagog so'zi chizish jarayonini tashkil etadi, fazoviy qarashlarni shakllanishiga yordam beradi. Pedagog chizish jarayonini shunday tashkil egashi kerakki, o'quvchi qaysi maqsadda kuzatishni bilimlari, aniq bir vazifa ustida nimani idrok qilishlarini vazifasini qo'yish kerak. Masalan: ko'zani chizganda o'qituvchi ko'zani chiziqli - konstruktiv tuzilishiga vazifasini qo'ydi.

Demak, chizuvchi o'z faoliyatini ko'zani konstruktiv tuzilishini chuqur o'rganilsa aniq tasvirlash uchun zamin tayyorlaydi. Rasm chizish jarayonini tadqiqot qilgan N.N.Volkov, V.S.Kuzin, E.I.Ignatev va boshqalar rasm chizuvchida fazoviy tasavvurni o'stirishda qo'llash asosiy shartlardan birideb hisoblaydilar. Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud.



Ularni o'quvchilarga o'rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda, o'quvchilarimiz milliy qobiqqa o'ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmay qoladilar. SHuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san'at, dekorativ-amaliy san'at, me'morchilik san'ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'atdan beriladigan malakalarni unutmashimiz zarur.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Oripov Badirjon Nuriddinovich. "Maktab tasviriy san'atni o'qitishni predmetlararo bog'lanish" T.; 2013. "Fan va texnologiya"
2. Oripov Badirjon Nuriddinovich. "Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi". T.; 2013. "Ilm ziyo".
3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Talabalar uchun darslik. -T.: Fan, 2004.
4. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.